

INDIAN

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE



THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY



 2025 YEAR

INDIAN, NEW DELHI



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY

International scientific-online conference

Part 30

February 21st

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

NEW DELHI 2025



THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st February, 2025) -INDIA, New Delhi : "CESS", 2025. Part 30 – 295p.

Chief editor:

Candra zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, india, english, казахша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY". Which took place in New Delhi on February 21, 2025.

Conference proceedings are recomanded for scientits and teachers in higher education esteblishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2025
© Authors, 2025



<i>SECTOR-SPECIFIC DIVERSIFICATION AS AN IMPORTANT STAGE FOR GREEN ECONOMY DEVELOPMENT</i> Nurova Gulnora Nutfulloyevna	188
<i>THE SPECIFIC FEATURES OF USING INNOVATIONS IN BUSINESS ACTIVITIES AND THE EXISTING PROBLEMS IN THE TRANSITION TO INNOVATIVE MARKETING PRACTICES</i> H.N. Abdullayeva	192
<i>MOBIL TO'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI</i> Rahimov Javohirbek Rustam o'g'li Giyazova Nozima Bayazovna	200
<i>NAFAS YO'LLARINING SURUNKALI VA ALLERGIK KASALLIKLARIGA SABAB BO'LUVCHI PM DISPERS ZARRALARI VA YER YUZIDAGI O'RNI.</i> Po'latov Mirkomol Salimjon o'g'li	205
<i>РАЗВИТИЕ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ: ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ПРАВИЛЬНОЙ И БЕГЛОЙ РЕЧИ У ДЕТЕЙ</i> Нызаматдинова Шахсанем Караматдиновна	210
<i>INTERNET WORLD AFFECTING YOUTH PSYCHOLOGY</i> Ridanova Flora Sergeyevna Sheraliyev Sarvar Jumali o'g'li	213
<i>ETNOLINGVISTIKA VA LINGVISTIK KLASSIFIKATSIYALASH</i> Hamzayev Ravshanbek Erkinjon o'g'li F.Aqchayev	218
<i>ПЕРВЫЕ ГОДЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПЕЧАТИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ВЛИЯНИЕ ДЖАДИДИЗМА</i> Базарбаева Айсанам Байрам кызы	224
<i>RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI</i> Rajabova Nilufar Bahodir qizi Raxmatullayeva Feruza Mubinovna	227
<i>SUN'IY INTELLEKT VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI</i> Abdurahmonova Nigora Furqatovna Tairova Ma'suma Muxammedrizaevna	233
<i>INTERNET NARSALAR (IOT) VA UNING RAKAMLI IQTISODIYOTGA TA'SIRI</i> Ilhomova Sitorabonu Shuhrat qizi Tairova Ma'suma Muxammedrizaevna	241
<i>TEST YARATUVCHI DASTURLAR VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i> Sodiqova Sabohat Choriyevna	250
<i>ALISHER NAVOIY QIT'ALAR TAHLILI</i> Akbarjonova Gulsanam	253
<i>HAYVONLARDA PATOGEN MIKROORGANIZMLAR VA ULARNING DAVOLASH USULLARI</i> Axmedov Saidmirzaxo'ja To'liqin o'g'li	257
<i>FARMASEVTIKA TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA QUYIDAGI FIKRLAR VA G'OYALAR</i> Doniyorova Zulayho Uchqunjon qizi	263



MOBIL TO'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

Rahimov Javohirbek Rustam o'g'li

*Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
3-bosqich talabasi*

Giyazova Nozima Bayazovna

*Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Iqtisodiyot kafedrası dotsenti,
i.f.f.d (PhD)*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mobil to'lovlarning qulayligi, xavfsizligi va iqtisodiyotga ta'siri yoritiladi. Ular naqd pulsiz hisob-kitobni rivojlantirib, bank tizimi va biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, moliyaviy inklyuziyani oshirishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar. *mobil to'lov, raqamli to'lov, naqd pulsiz iqtisodiyot, elektron hamyon, mobil banking, elektron savdo, tezkor to'lov, tranzaksiya, kontaktless, QR-kod, NFC to'lov.*

Mobil to'lovlar – bu smartfonlar va boshqa mobil qurilmalar orqali tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish jarayoni. Ular elektron hamyonlar, mobil banking va NFC texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida timizdagi tijorat banklariga bu tizimning joriy etilishi banklararo to'lovlarning o'tishini tezlashtirdi va bank faoliyatini to'liq avtomatlashtirishga katta imkoniyatlar yaratdi.

Tarmoq texnologiyasining jadal rivojlanishi va ommalashishi bilan elektron tijorat sezilarli darajada rivojlanmoqda, elektron tijorat orqali korxonalar va mijozlar bugungi kunning yangi biznes faoliyat ishtirokchilariga aylandi, turli sohalarni rivojlantirishda imkoniyatlar paydo bo'la boshladi. Aloqa texnologiyalari va to'lov tizimlarining doimiy takomillashuvi bilan mobil to'lovlar jadal rivojlanmoqda, funksiyalar doimiy ravishda yangilanib borilmoqda, takomillashtirilib, turli amaliy dasturlar bilan birlashtirildi.

Mobil to'lovlarning ahamiyati hozirgi zamonaviy hayotda keng qo'llaniladigan va aholi uchun juda qulay bo'lgan mobil to'lov usuli hisoblanib, ular orqali foydalanuvchilar istalgan vaqtda va joyda turli xizmatlar uchun tez va oson to'lov qilishlari mumkin. Bu to'lov usuli nafaqat vaqtni tejashga yordam beradi, balki bank yoki boshqa moliyaviy muassasalarga borish zaruratini ham kamaytiradi. Bundan tashqari, mobil to'lovlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham katta hissa qo'shadi, chunki u bank xizmatlariga kirish imkoniyati cheklangan odamlar uchun ham moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Mobil to'lovning ahamiyati hozirgi kunda kommunal to'lovlar, internet, mobil aloqa, onlayn savdo va boshqa ko'plab xizmatlar uchun to'lov qilish mumkin, bu esa ularning ahamiyatini yanada oshiradi.

Mobil to'lov asosiy turlar:




1. Mobil banking – Tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan mobil ilovalar orqali to'lovlar, hisob-kitoblar va pul o'tkazmalari amalga oshiriladi. Ushbu tizim foydalanuvchilarga istalgan vaqtda moliyaviy operatsiyalarni bajarish imkonini beradi. (Masalan, Click, Payme, Humo, Visa Direct)

2. Elektron hamyonlar – Bank hisobvarag'iga bog'lanmagan, mustaqil ravishda ishlaydigan raqamli hamyonlar. Ular onlayn xaridlar, xizmatlar uchun to'lovlar va tezkor pul o'tkazmalarini osonlashtiradi. (Masalan, PayPal, WebMoney)

3. QR-kod orqali to'lovlar – Savdo nuqtalarida yoki onlayn platformalarda QR-kodni skanerlash orqali to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu usul tezkor va xavfsiz tranzaksiya imkoniyatini ta'minlaydi.

4. NFC (Near Field Communication) orqali to'lovlar – Smartfon yoki aqlli gadjetlar orqali kontaktsiz to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi.

Mobil to'lov tizimlari mobil banking elektron hamyonlar, QR-kod va NFC to'lovlar foydalanuvchilarga tezkor, xavfsiz va qulay to'lov imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu texnologiya nafaqat tezkor va qulay, ko'p funktsiyali balki xavfsiz to'lov mexanizmini ham ta'minlaydi. Bu tizimlar naqd pul yoki kartaga ehtiyojni yo'q qiladi, firibgarlik xavfini kamaytiradi va yashirin iqtisodiyotini qisqartiradi. Shuningdek, atrof-muhitni himoya qilishga yordam beradi.



1-rasm. Mobil to'lovning foydali tomonlari.

Tezkor va qulay – To'lovlar bir necha soniya ichida amalga oshiriladi, naqd pul yoki kartaga ehtiyoj qolmaydi.

Xavfsiz – Shifrlash va autentifikatsiya texnologiyalari firibgarlik xavfini kamaytiradi.

Naqd pulsiz iqtisodiyot – Pul muomalasi elektron shaklga o'tib, soya iqtisodiyotini qisqartirishga yordam beradi.

Ekologik jihatdan foydali – Qog'oz chek va naqd pulga ehtiyoj kamayib, atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shadi.

Ko'p funktsiyali – Kommunal to'lovlar, soliqlar, xaridlar, transport chiptalari va boshqa xizmatlarni bir platforma orqali to'lash mumkin.



Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida mobil to'lov, kontaktless to'lov va tranzaksiyalar moliyaviy tizimning ajralmas qismiga aylanib, ular nafaqat odamlarning kundalik hayotini yengillashtirish, balki biznes jarayonlarini optimallashtirish kabi iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishga hissa qo'shish kabi muhim vazifalarni bajarmoqda kelmoqda. Ushbu texnologiyalar hozirgi kunda moliyaviy operatsiyalarni tezkor, xavfsiz va qulay shaklda amalga oshirish imkoniyatini yaratibgina qolmay, naqd pulsiz jamiyat sari harakatni jadallashtirmoqda.

Kontaktless to'lov texnologiyalari orqali foydalanuvchilar tez va qulay to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin.

Tranzaksiya: Moliyaviy operatsiyalar. Elektron to'lov tizimlari orqali tranzaksiyalar tez va xavfsiz amalga oshirilmoqda.

Elektron savdo: Internet orqali tovar va xizmatlarni sotish. Elektron savdo platformalari raqamli to'lovlarni qo'llab-quvvatlab, mijozlarga qulaylik yaratmoqda.

1-jadval

Mobil to'lovlarning Markaziy Osiyo davlatlarida rivojlanishi ⁴

Davlat	Mobil to'lovlarning rivojlanish darajasi	Ijobiy ta'sir	Salbiy ta'sir	Potensial imkoniyatlar
O'zbekiston	Yuqori	- Iqtisodiy faoliyatning o'sishi: Kichik biznes uchun qulaylik. - Soliqlar oshishi.	- Raqamli infratuzilma cheklovlari: Qishloq hududlarda qiyinchiliklar. - Xavfsizlik xatarlari.	- Fintech va startaplarning rivojlanishi.
Qozog'iston	Yuqori	- Bank xizmatlaridan foydalanishning kengayishi. - Xaridlar hajmining oshishi.	- Bozorning monopolizatsiyasi. - Kibershaxsiylik xatarlarining kuchayishi.	- Innovatsiyalarni jalb qilish orqali texnologik o'sish.
Qirg'iziston	O'rtacha	- Chekka hududlarda xizmatlarga kirishning yaxshilanishi. - Remittanslar osonlashishi.	- Ko'p aholining raqamli savodxonligi pastligi.	- Xalqaro transferlarda to'lov tizimlarini kengaytirish.

O'zbekistonda mobil to'lov tizimi tez rivojlanmoqda, naqd pulsiz operatsiyalar ommalashmoqda. Biroq, xavfsizlikni mustahkamlash, firibgarlikning oldini olish va xizmatlarni yanada qulay qilish zarur.

⁴ Muallif ishlanmasi



Qozog'istonda mobil to'lov tizimi tez rivojlanmoqda, bu esa moliyaviy operatsiyalarni qulay va tezkor qiladi. Biroq, xavfsizlikni mustahkamlash, firibgarlikning oldini olish va xizmatlarni barcha foydalanuvchilar uchun yanada tushunarli qilish zarur.

Qirg'izistonda mobil to'lov tizimi rivojlanmoqda, ammo internet infratuzilmasini yaxshilash, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va xizmatlarni yanada qulay hamda ommabop qilish zarur.

Mobil to'lov texnologiyalari iqtisodiyotda nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish o'rinlari, innovatsion xizmatlar va startaplar uchun yo'l ochadi. Mintaqada raqamli infratuzilmani rivojlantirish va xavfsizlikka e'tibor qaratish kelgusi taraqqiyotning muhim omili bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mobil to'lovlar va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati juda katta. Bu vaqtni tejaydi va xatolar ehtimolini kamaytiradi. Mobil to'lov ham elektron tijoratni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ular tashkilot va korxonalarga o'z mijozlaridan to'lovlarni qabul qilishning oson va qulay usulini taqdim etadi. Mobil to'lovlar kelajakda ham iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi, chunki ular texnologiyaning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib boradi va turli xil xizmatlarni taklif qiladi. Ular nafaqat moliyaviy operatsiyalarni osonlashtiradi, balki iqtisodiy o'sish, moliyaviy inklyuziya va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Mobil to'lovlarning ahamiyati kelajakda yanada ortishi kutilmoqda, chunki texnologiyalar rivojlanishi va foydalanuvchilarning ehtiyojlari o'zgarishi bilan bu soha yanada kengayadi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Абдуллаева, Ҳ. Н. (2024). МАХАЛЛИЙ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИДА МАРКЕТИНГ ДАСТУРЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШ AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING ISSN: 2996-5128 (online) | ResearchBib (IF) = 9.918 IMPACT FACTOR Volume-2| Issue-5| 2024 Published: |30-12-2024| 800 АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(05), 1-9.
3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATION MARKETINGDAN FOYDALANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREAZING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 455-461.



6. Giyazova, N.B., & Sh,B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 482-489.
7. Niyozova, I. N., & Shodibekov, U. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOJXONA TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISH. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 5(40), 619-623.
8. Niyozova, I. (2023). Digitalization-Merits And Demerits On The Whole Society. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 38(38).
9. Tairova, M. M., Narzullayeva, G. S., & Odinayeva, N. F. (2021). Foreign Experience in Ensuring High Competitiveness of Economists in Higher Education.
10. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 371-376.
11. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2023). Audit and Marketing Audit in Small Business and Private Entrepreneurship: The Order and Process of Inspection.
12. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).
13. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Indexing*, 1(1).
14. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.